


SH.Q.QURBONOV

**SPORT VA HARAKATLI O'YINLARNI
O'QITISH METODIKASI
(BASKETBOL)**



Buxoro-2021

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QURBONOV SHUHRAT QO`LDOSHOVICH

SPORT VA HARAKATLI O`YINLARNI O`QITISH

METODIKASI

(BASKETBOL)

5112000- "Jismoniy madaniyat" ta`limy
o`nalishi talabalari uchun uslubiy qo`llanma sifatida
tavsiya qilinadi.

BUXORO-2021

Ushbu o'quv metodik qo'llanma Milliy va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Bunda oiliy ta'lim talabalarining Milliy va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi bo'yicha kasbiy pedagogik ko'nikmalari va mahoratini, yo'l - yo'riqlarini o'rgatish ifodalangan. Uslubiy qo'llanma o'qituvchilar va talabalar uchun mo'ljallangan

Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashining 2021 yil 29 maydagi yig'ilishning №10-son bayonnomasi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan

So'z boshi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan e'tibor kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari, hukumat qarorlari hamda "Sportdagi har bir natija-millatning sog'lomligini, qudratini, buyukligini namoyon etuvchi eng yaxshi mezondir" degan da'vat aholi o'rtasida jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirdi. Shuning uchun yurtimizda sportga keng etobor berilmoqda. Shuningdek ayollar sportiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. BuxDU Jismoniy madaniyat fakultetida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash o'quv rejasiga binoan bir necha pedagogik ixtisosliklar bo'yicha amalga oshiriladi. Jumladan, maktabgacha tarbiya muassasalarida jismoniy tarbiya bo'yicha murabbiy o'rta maktab va bilim yurtlarida, litsey, kollej, institut, universitet, akademiyalarda jismoniy tarbiya bo'yicha o'qituvchi, armiya, ilmiy tadqiqot institutlari, ishlab chiqarish korxonalarida va boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va kasbga mos jismoniy tayyorgarlik bo'yicha yo'riqchi, turar joylarda, muolaja, maishiy madaniyat, dam olish va boshqa shunga o'xshash dargohlarda sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya bo'yicha tashkilotchi degan ixtisosliklar institutning o'quv rejasidan joy olgan. Sport – bu millatning o'zligini anglashda, uning aniq maqsadlar sari jipslashuvi va birlashuvida, o'zidagi bor salohiyatini hamda qudratini jahon uzra namoyon bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mamlakat sportini rivojlantirish dolzarb va nihoyatda muhim masaladir. Zero, jismonan baquvvat va sog'lom millat qudratli bo'ladi, uning davlati har tomonlama mustahkam bo'lib, buyuk taraqqiyot sari rivojlanib boradi. Biz bugun sport sohasida "Umid nixollari", "Barkamol avlod" va Unversiyada musobakalari bilan chegaralanishimiz kerak emas. Iqtidorli o'smir va kizlarni tanlab olish va tarbiyalash bo'yicha jiddiy seleksiya ishlarini amalga oshirish zarur. Bu sport tashkilotlari, ta'lim muassasalari va ota-onalar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Iqtidorli o'g'il va qizlarni tanlash, ularni sinov-tajribalaridan o'tkazish va etuk darajadagi sport mahoratlarini tarbiyalashda ilg'or

protsessida ularning borliq haqidagi tushunchalari chuqurlashadi mustahkamlanadi.

Bolalar oilada va bolalar muassasalarida tarbiyalanganda butunlay o'yin va ermaklar bilan band bo'lsalar, maktabga kirish bilan ularning asosiy qiziqish va e'tibori o'qishga qaratiladi.

O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun shunday bosqichki, bunda ular yangi bilim va tushunchalarni egallashga qaratilgan mustaqil faoliyatni boshlaydilar. Bolalar maktab tajriba uchastkasida ishlash va uyda foydali mehnat qilishdan tashqari, bo'sh vaqtlarining bir qismini turli o'yin va ermaklarga sarflaydilar. Bunday qilish ularga o'z ehtiyojlarini qondirish va yaxshi dam olish imkonini beradi.

Harakatlil o'yinlar bola harakatlarini o'stirish va takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan yurish, yugurish, sakrash, biror narsani irg'itish yoki ulotirish, biror narsaga tirmashib chiqish kabi mashqlarni o'z ichiga oladi. Harakatlarning takomillashishi bilan birga, jismoniy qobiliyat ham taraqqiy etadi, yurak va nafas olish sistemasining faoliyati yaxshilanadi.

Tariximizdan meros bo'lib qolgan o'zbek xalq harakatlil o'yinlarini hayotga tadbirg etishga kengroq yo'l ochib berilishi, uni ommaviy tus oldirilishi, oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktablarda, dam olish joylarida, har xil marosim va bayramlarda "Navruz", "Mustaqillik" kuni byramlari va boshqa ommaviy-madaniy sport tadbirlarida sport turlari gatorida milliy harakatlil o'yinlarni tashkillashtirishi o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etishi muqarrardir. Milliy xalq harakatlil o'yinlari qadim-qadim zamonlardan boshlab xalq marosimlarida, rasm-rusumlarida va urf-odatlarida mustaqil bir soha sifatida musobaqalarda, bahslarda keng qo'llanilgan. Jismoniy tarbiya xalqning urf-odatlarida, udum va rasm-rusum-larida shakllanib, ming yillar davomida rivojlanib, takomillashib kelgan. Xalq milliy o'yinlari ming yillar davomida bizgacha yetib kelgan o'zbek milliy xalq o'yinlari "Orda chopirish", "Qiz quvlash", "Uloq", "Kamonda o'q otish", "Chillak", "Oq suyak", "Sogqa", "Besh tosh" kabi va boshqa o'yinlar orqali botirlik, epchillik, tezkorlik,

Бухоро давлат унiversитети
ўқув-методик кенгаш 10-сонли
йиғилишининг баённомасидан
К ў Ч И Р М А

29.05.2021

Бухоро шаҳри

К У Н Т А Р Т И Б И:

4. Турлимасалалар.

Факультетлараро жисмоний маданият ва спорт кафедраси ўқитувчиси Ш.Қ.Қурбоновнинг “Спорт ва ҳаракатли ўйинларни ўқитиш методикаси (Баскетбол)” деб номланган услубий қўлланмасини нашрга тавсия этиш.

Э Ш И Т И Л Д И:

М.Фармонова (кенгаш котибаси) – Факультетлараро жисмоний маданият ва спорт кафедраси ўқитувчиси Ш.Қ.Қурбоновнинг “Спорт ва ҳаракатли ўйинларни ўқитиш методикаси (Баскетбол)” деб номланган ўқув-услубий қўлланмасини нашрга тавсия этиш учун тайёрланганлигини маълум қилди. Ушбу услубий қўлланмага: Жисмоний маданият факультети декани, п.ф.д Б.Б.Мамуров, Факультетлараро жисмоний маданият ва спорт кафедраси мудири, доцент А.К.Ибрагимовлар томонидан ижобий тақриз берилгани таъкидланди. Услубий қўлланма муҳокамаси ҳақидаги Жисмоний маданият факультети (2021 йил 24 май), Факультетлараро жисмоний маданият ва спорт кафедраси (2021 йил 25 май) йиғилиш қарори билан таништирди.

Юқоридагиларни инобатга олиб ўқув-методик кенгаш

Қ А Р О Р Қ И Л А Д И:

1. Факультетлараро жисмоний маданият ва спорт кафедраси ўқитувчиси Ш.Қ.Қурбоновнинг “Спорт ва ҳаракатли ўйинларни ўқитиш методикаси (Баскетбол)” деб номланган ўқув-услубий қўлланмасини нашрга тавсия этилсин.

Ўқув-методик кенгаш раиси
Ўқув-методик кенгаш котибаси

Кўчирма аснга туғри

Ўқув-методик кенгаш котибаси



Даминов М.И.
Фармонова М.

Фармонова М.